

"Ammofos-Maxam" Ajda sayyor seminar bo'lib o'tdi

// 02 December 2022 yil

<https://pda.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/ammofoz-maxam-ajda-sayyor-seminar-bolib-otdi>



Joriy yilning 1-dekabr kuni "Ammofos-Maxam" Ajda "O'zkimyosanoat" AJ tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishini ta'minlash, xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlash, matbuot xizmatlari va kasaba uyushmasi faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha sayyor seminar-trening o'tkazildi. Shuningdek, seminarda korxonatashkilot rahbarlarining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari faoliyati va amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.

Seminarda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha rais maslahatchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar boshlang'ich kengashi raislari, kasaba uyushma qo'mitalari raislari hamda matbuot kotiblari ishtiroy etdi.

Sayyor seminar-treningda Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti mas'ul xodimi Rustamjon Tursunov ishtiroy etib, bugungi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek zalvorli davrda davlat tiliga bo'lgan e'tibor, uning nufuzini oshirish yo'lida ilgari surilayotgan islohotlar haqida alohida ta'kidladi. Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, sayqal topib borgani, Birinchi va Ikkinchi Renessans davlaridagi o'rni va ahamiyati haqida gapirib o'tdi.

Bundan tashqari, seminarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul xodimi Ziyoda Akbarqulova ham ishtirok etib, katta shodiyona bilan nishonlanishi kutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 30 yilligi munosabati bilan bosh qomusimizga bag'ishlangan nutq so'zladi.

"O'zkimyosanoat» AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abdurahmanova seminar so'nggida joriy yilning o'tgan davri mobaynida sohada olib borilgan amaliy ishlar, yutuqlar, kamchiliklar, tahlillarga to'xtalib o'tdi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan yaqin hamkorlik olib borgani, amaliy ko'mak bergani uchun seminar ishtirokchilariga samimi minnatdorchiligini bildirdi.





uzkimyosanoat

uzkimyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26



UZBEKISTAN
MATERIALS CATALOG



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26